

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MEYLIYEVA MUNISXON NORMUMINOVNA**

**OQAVA VA TABIIY SUVLAR TARKIBIDA NEFT  
MAHSULOTLARINI ANIQLASHNING GAZ-XROMATOGRAFIK  
USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical  
Sciences**

**Meyliyeva Munisxon Normuminovna**

Оqava va tabiiy suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashning gaz-xromatografik usulini takomillashtirish..... 5

**Мейлиева Мунисхон Нормуминовна**

Усовершенствование газохроматографического метода определения нефтепродуктов в сточных и природных водах..... 21

**Meylieva Muniskhon Normuminovna**

Improvement of the gas chromatographic method for determining petroleum products in waste and natural waters..... 40

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MEYLIYEVA MUNISXON NORMUMINOVNA**

**OQAVA VA TABIIY SUVLAR TARKIBIDA NEFT**  
**MAHSULOTLARINI ANIQLASHNING GAZ-XROMATOGRAFIK**  
**USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K754 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Geologiya fanlari universiteti, "Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Smanova Zulayxo Asanaliyevna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abduraxmonov Ergashboy**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ziyavitdinov Jamolitdin Fazlitdinovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 23-noyabr soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; (99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24 e-mail: ilmiy\_kengash@nuu.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (115-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; (99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiyaning avtoreferati 2024-yil 6-noyabrda tarqatildi.  
(2024-yil 5-noyabrdagi 28-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.Sh. Daminova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash rais o'rinbosari k.f.d., prof.

**N.X. Qutlimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi k.f.d., prof.

**B.N. Babayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi k.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talabgorligi.** Dunyoda yengil va og'ir sanoat tarmoqlarini jadal rivojlanishi, uglevodorodlarni qidirib topish, resurslarini oshirish, samarali qazib olish va qayta ishlashga bo'lgan ehtiyojni kun sayin oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida neft mahsulotlarini atrof-muhit, jumladan suv resurslari va tuproqlarni ifloslanishiga ko'rsatayotgan ta'siri turli geoeologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni yechimida, ayniqsa suv resurslari va tuproqlardagi neft mahsulotlari miqdorini samarali aniqlashda qo'llaniladigan aniqligi yuqori, selektiv, tezkor va arzon tahlil usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida soha olimlari tomonidan suv resurslari va tuproqlarni neft mahsulotlari bilan ifloslanishini baholash hamda ular tarkibida neft mahsulotlari miqdorini aniqlash bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, geoeologik muhitni ifloslanish o'choqlarini aniqlash va o'z vaqtida tegishli tezkor qarorlar qabul qilishda gaz-xromatografiyasida suyuq fazadan neft mahsulotlarini ajratib olish uchun organik erituvchi tanlash, hamda elyuatni qutbli birikmalardan tozalash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijalari, o'z navbatida, suv resurslari va tuproqlarni ifloslanishini baholash va ularni muhofazalash hamda oqilona foydalanish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda strategik ahamiyatga ega bo'lgan suv resurslari, tuproqlarni ifloslanishdan muhofazalash va ulardan oqilona, maqsadli foydalanish uchun tadqiq qilishda tarkibidan neft mahsulotlarini ajratib olish va ularni miqdoriy kimyoviy tahlil qilishning "gibrid" usullarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda, hamda ushbu yo'nalishlarda muayyan natijalarga erishilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "suv zaxiralaridan oqilona va samarali foydalanish; ekologik talablarga javob bermaydigan maishiy chiqindi poligonlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish"<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Respublikamizda atrof-muhit obyektlarini ifloslanish manbalaridan biri hisoblangan neft-kimyosanoatining chiqindi suvlari tarkibidagi neft mahsulotlarini aniqlashning zamonaviy, yana-da ishonchli, tezkor va arzon usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi kimyosanoatini rivojlantirishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtda fanda suv resurslari tarkibida neft mahsulotlarini miqdoriy aniqlashning ko‘plab usullari mavjud. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida suyuq fazada neft mahsulotlarini aniqlash bo‘yicha kimyoviy tahlillar asosan spektrometriya va xromatografiya usullari orqali bajariladi. Bu yo‘nalishda xorijlik olimlardan R.J. Van Delft, A.G. Snijders, M.A. Ruyken, Z. Vang, M. Fingas, Xyuz Fil, O.M. Gridin, Yu.V. Semenov, V.V. Morozov, I.I. Kosolapov, V.Ye. Kotova, M. Ozeriskiy, A.Ye. Gorevoy, D.K. Mitin, M.V. Vashurina, A.L. Xramsova, Yu.O. Rusakova, Yu.V. Vasilyev va G.I. Shamsiaxmetovalar faoliyat olib borishgan.

Respublikamizda H.M. Abdullayev, T.X. Shoymuratov, N.M. Akramova, J.F. Ziyavitdinov, Z.A. Smanova, X.M. Bobakulov, X.F. Xudoyberdiyev va boshqalar tomonidan suv resurslari tarkibida neft mahsulotlari miqdorini gaz-xromatografik usuli yordamida aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunga qaramay, analitik tahlil usullarining rivojlanishi bilan atrof-muhit obyektlarida neft mahsulotlarini aniqlashning sezgirliги va selektivligini oshirish talablari tobora ortib bormoqda, bu esa yangi zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi. Lekin bugungi kunga qadar suyuq fazadan ajratib olingan neft mahsulotlarining fraksiya tarkibi (identifikatsiya) batafsil o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Geologiya fanlari universiteti, Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №471 “O‘zbekistondagi neft va gaz konlarining qatlam suvlarida qimmatbaho metallar va nodir yer elementlarining tarqalishini o‘rganish va baholash” mavzusidagi byudjet loyiha va “Farg‘ona viloyati neftni qayta ishlash hududi va Toshloq uchastkasi yer osti suvlarini neft mahsulotlari bilan ifloslanishini batafsil o‘rganish” mavzusidagi shartnoma ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Oqava va tabiiy suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashning gaz-xromatografik usulini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.**

- suyuq fazada organik erituvchi yordamida neft mahsulotlarini maksimal ajratib olish uchun optimal sharoitlarini tanlash (harorat, vaqt va muhitning ekstraksiyaga bog‘liqligi);

- suyuq fazada organik erituvchi yordamida neft mahsulotlarini maksimal ajratib olish imkonini beradigan organik erituvchi tanlash hamda ajratib olingan elyuatni silikagel yordamida qutbli birikmalardan tozalash uchun “xromatografik mikrokolonka” yordamida usulni takomillashtirish;

- neft mahsulotlarini mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografik usuli yordamida fraksiyalarini ajratish va alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usuli yordamida neft mahsulotlari miqdorini aniqlash chegaralarining qiymatlarini belgilash;

- real obyektlarda neft mahsulotlari miqdori va fraksiya tarkibini aniqlashda gaz-xromatografik tahlil sxemasini ishlab chiqish;

- real obyektlarda neft mahsulotlari miqdori va fraksiya tarkibini aniqlashda yangi takomillashtirilgan gaz-xromatografiya usulini sinovdan o'tkazish;

- takomillashtirilgan analitik usulni boshqa standart usullar yordamida tekshirish, verifikatsiya va validatsiyalash.

**Tadqiqotning obyekti** – tarkibida neft mahsulotlari mavjud bo'lgan sun'iy aralashmalar, real obyektlardan olingan oqava va tabiiy suvlar namunalari.

**Tadqiqotning predmeti** – neft mahsulotlari, geksan, xloroform organik erituvchilari, silikagel, alyuminiy oksid va natriy sulfat tuzlari.

**Tadqiqotning usullari.** Gravimetriya, fluorimetriya, IK-spektroskopiyasi, fotometriya, gaz-xromatografiya, elektrokimyoviy usullar va matematik statistika hisoblash usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

- suv obyektlarining tipiga (yer osti va yer usti, oqava, ichimlik suvlari) va suyuq fazada neft mahsulotlarining konsentratsiyasiga ( $>0.02 \text{ mg/dm}^3$ ) bog'liq bo'lmagan holda ulardan neft mahsulotlari fraksiyalari va miqdorini maksimal ajratib olishning optimal sharoitlari: organik erituvchi - xloroform,  $20 \text{ }^\circ\text{C}$  haroratda, 5-8 daqiqada, muhit  $\text{pH} \geq 2$ ga tengligi aniqlangan.

- suyuq fazada umumiy neft mahsulotlari fraksiyalari va miqdorini maksimal ajratib olishda yangi mahalliyashtirilgan "xromatografik mikrokolonka" taklif etildi;

- tanlangan organik erituvchi va namuna tayyorlash sharoitida, suv resurslaridan xromatografik mikrokolonka usuli yordamida neft mahsulotlarini ajratib olish hamda sifat (identifikatsiya) va miqdoriy tahlil qilishda ekspress mass-spektrometrik va alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usuli takomillashtirilgan;

- takomillashtirilgan mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografik usuli yordamida, ilk bor real obyektlarda mavjud kuzatuv burg'i quduqlari va oqava suv namunalari tarkibidagi neft mahsulotlari fraksiyalari identifikatsiya qilingan;

- takomillashtirilgan usul yordamida sun'iy namunalar tahlil qilinib, mavjud standart gravimetrik, fluorimetrik va IQ-spektroskopiyasi usullari bilan solishtirilganda nisbiy standart chetlanish 0,048 dan oshmasligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- takomillashtirilgan xromatografik mikrokolonka usulidan foydalangan holda suv resurslaridan neft mahsulotlarini maksimal ajratib olish va quyi aniqlash chegarasi  $0,02 \text{ mg/dm}^3$  gacha aniqlash imkoniyati yaratilgan;

- takomillashtirilgan gibrid alanga-ionizatsion, mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografiya usulini qo'llash orqali neft sanoatining tabiiy va chiqindi suvlari tarkibidagi neft mahsulotlarini bir vaqtning o'zida fraksiyaga ajratib miqdoriy tahlil qilishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Fizik-kimyoviy hamda gibrid, sezgir va selektiv gaz-xromatografiya kabi zamonaviy usullar yordamida muayyan natijalar olinganligi bilan, shuningdek, takomillashtirilgan usul mahalliy va xalqaro reyestrda ro'yxatdan o'tgan O'z O'U 0691-2015, Dav St 118.3897485.13-92 va Dav St 14.1:2.116-97 standartlar bilan solishtirish yordamida asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati suyuq fazada neft mahsulotlarini organik erituvchi yordamida

xromatografik mikrokolonka usulida ajratib olishning optimal sharoitlari tanlangan va ular asosida bir vaqtning o'zida neft mahsulotlari fraksiyalarini identifikatsiya qilish va miqdorini aniqlash imkonini beradigan gibril alanga-ionizatsion, mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografiya usuli takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati suv resurslarida neft mahsulotlarini aniqlashda takomillashtirilgan gaz-xromatografik usuli yer osti suvlarini hamda uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash sanoatida oqava va qatlam suvlarini samarali tahlil qilgan holda gidrogeologik, geoekologik muhitni baholash, shuningdek, ekologik muammolarni hal etishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oqava va tabiiy suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashning gaz-xromatografik usulini takomillashtirish natijalari asosida: namuna tayyorlashning optimal (neft mahsulotlari fraksiyalarini maksimal ajratib olish uchun organik erituvchi – xloroform, ekstraksiya qilish harorati - 20 °C va ekstraksiya vaqti 5-8 daqiqa, suv muhiti  $\text{pH} \geq 2$ ) usuli yordamida tayyorlangan oqava, yer osti va qatlam suvlari namunalari Farg'ona gidrogeologiya stansiyasi va Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti laboratoriyalarida qo'llanilgan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi 08-2330-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suv resurslaridan neft mahsulotlarini ajratib olishda maqbul organik erituvchini tanlash, ekstraksiya jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish va eiyuatni sifatli tozalash imkonini bergan.

Suyuq fazada neft mahsulotlarini organik erituvchi yordamida xromatografik mikrokolonka usulida aniqlashning takomillashtirilgan gaz-xromatografik usuli Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti va Farg'ona gidrogeologiya stansiyasi faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi 08-2330-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suv resurslarida neft mahsulotlarining konsentratsiyasiga ( $>0.02 \text{ mg/dm}^3$ ) bog'liq bo'lmagan holda ulardan neft mahsulotlari fraksiyalarini samarali ajratish va miqdorini aniqlashga imkon yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari 7 ta jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 4 ta, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Muammoni respublika va xorijda o‘rganilish darajasini baholash (Adabiyotlar sharhi)**” nomli birinchi bobida adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida gidrosferaning neft mahsulotlari bilan ifloslanish omillari, neft mahsulotlarining flora, fauna va inson organizmiga ta‘siri, toksikologik xususiyatlari, uglevodorodlarning tarkibiy qismlari, fizik-kimyoviy xossalari va ularning atrof-muhit obyektlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, uglevodorodlarning atrof-muhit obyektlarida ruxsat etilgan me‘yorlari, tabiiy va oqava suvlardan neft mahsulotlarini ajratib olish hamda miqdoriy tahlil qilishning zamonaviy standart usullari o‘rganib chiqilgan. Adabiyot ma‘lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, suyuq fazada neft mahsulotlarini ajratib olish hamda miqdoriy va fraksiya tarkibini aniqlashning yangi usullarini ishlab chiqish, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish tahlil jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va tahlil natijalarini ishonchliligini oshiradi.

Dissertatsiya ishining “**Tadqiqot materiallari, obyektlari va jihozlari**” nomli ikkinchi bobida, tadqiqot davomida qo‘llanilgan asbob-uskunalar, jihozlar, kimyoviy moddalar, xalqaro standart namunalar, neft mahsulotlarining asosiy va ishchi eritmalarini tayyorlash usullari, suv resurslaridan namunalar olish qoidalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.


“**Suv resurslarida neft mahsulotlarini aniqlashning alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usulini takomillashtirish bosqichlari**” nomli uchunchi bobida, suyuq fazadan organik erituvchi yordamida xromatografik mikrokolonka usulida neft mahsulotlari (qutbsiz va past qutbli uglevodorodlar, C<sub>8</sub>-C<sub>40</sub>) fraksiya tarkibi va miqdorini maksimal ajratib olishning optimal sharoitlari: organik erituvchi tanlash, ekstraksiya harorati va vaqti, suyuq faza muhiti o‘rganilgan.

Ilmiy tadqiqot uchun birinchi navbatda olingan neft mahsulotining kimyoviy tarkibi aniqlangan.

Neft mahsuloti tarkibida suv miqdori DavSt 2477-2014 asosida bajarilgan.

$$W = V_{H_2O} * 100/m_H = 0,08 * 100/99,54 = 0,08\%$$

Izlanishimiz davomida o‘rganilayotgan neft mahsuloti tarkibida 0,08 % suv borligi aniqlandi. Keyingi bosqichda neft mahsulotlari fraksiyalari aniqlandi. Neft mahsulotlari har 10°C haroratda qizdirilganda hosil bo‘lgan uglevodorod fraksiyalari aniqlandi. Tahlil DavSt 11011-85 asosida bajarildi. 1-rasmdan ko‘rish mumkinki, harorat har 10 °C ga oshganda neft mahsulotlari fraksiyalari massa ulushi ortib borgan.



**1-rasm.** Uglevodorodlarning har 10 °Cda hosil bo'lgan alohida fraksiyalari foizi keltirilgan.

Tanlangan organik erituvchilarni me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan tozalik darajasiga mosligi tekshirildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

Organik erituvchilarning mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografik tahlil natijalari

No t/r	Chiqish vaqti, min	Mahsulot nomi	Mahsulot miqdori, %	Qaynash harorati, °C	Quality (muvofiq ligi), %	Cas-No
1	0.840	Pentan	94.20	36,1	84	000109-66-0
2	0.937	Geksan	99.14	68,7	80	000110-54-3
3	0.938	Izogeksan	91.30	60,0	81	000107-83-5
4	1.092	Uglerod to'rt xlorid	96.27	76,72	90	000056-23-5
5	1.123	Petroleyn efir	88.47	70,0	92	008032-32-4
6	1.365	Xloroform	99.75	61,2	96	000067-66-3


Tanlangan organik erituvchilar yordamida konsentratsiya miqdori aniq sun'iy namunalar tarkibidan neft mahsulotlari ekstraksiya qilindi hamda ajratib olingan elyuatlarni mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografiya usul yordamida tahlil qilinib, identifikatsiya qilingan uglevodorodlarning kimyoviy tarkibi, miqdori va ularning izomeriyalari soni o'rganilgan. Tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval.**

Identifikatsiya qilingan uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tarkibi


Organik erituvchi	Chiqish va tugash vaqti, min	Mahsulot nomi, uglevodorod turi	Mahsulot qaynash harorati, °C	Mahsulot miqdori, %
Xloroform	3.076-32.264	n-oktandan - tetrakontangacha (58 xil)	125,6-523	96,35
Geksan	21.391-32.252	n-dekandan - eykosangacha (41 xil)	216-356	50,21
Uglerod to'rt xlorid	16.285-32.052	n-pentadekandan - eykosangacha (34 xil)	220-345	19,94

Olingan xromatogrammalar tahlil qilinganda, xloroform yordamida ekstraksiya qilingan sun'iy namunalar tarkibiga kiritilgan 60 ga yaqin neft mahsulotlarining barchasi identifikatsiya qilindi. Ekstraksiya natijalari 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm.** Organik erituvchilar identifikatsiya qilgan uglevodorodlar soni.


3-rasmda xloroformda ekstraksiya qilingan sun'iy namunaning xromatogrammasi keltirilgan.



**3-rasm.** Xloroformda ekstraksiya qilingan sun'iy namuna xromatogrammasi.

Shunday ekan, organik erituvchi xloroformdan keyingi ekstraksiya ishlarida optimal ajratuvchi sifatida foydalanish mumkin.


Suyuq fazadan neft mahsulotlarini ekstraksiya qilishda suyuqlik haroratining ekstraksiyaga bog'liqligini o'rganish maqsadida, suvdan neft mahsuloti 10 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan sun'iy namunani 10, 20, 30 va 40°C da ekstraksiya qilinib, masspektrometrik detektorli gaz-xromatografda xromatogrammalari tahlil qilindi. Natijalar 4-rasmda keltirilgan.



**4-rasm.** Suyuq fazada neft mahsulotlarini ekstraksiya qilishning haroratga bog'liqlik grafigi.

Xromatogramma natijalari solishtirilganda harorat 20 °C bo'lganda neft mahsulotlarining ko'plab fraksiyalarini suvdan ekstraksiya qilib olish effekti yuqoriligini ko'rish mumkin.

Neft mahsulotlarini ekstraksiya qilishda optimal vaqt tanlash uchun tarkibida 10 mg/dm<sup>3</sup> neft mahsuloti bo'lgan sun'iy namunani 1, 2, 3, 5, 8, 10 va 20 daqiqa davomida ekstraksiya qilinib, mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografda xromatogrammalar tahlil qilindi. Natijalar 5-rasmda keltirilgan.



**5-rasm.** Suvdan neft mahsulotlarini organik erituvchi yordamida ajratib olishning vaqtga ta'siri.

Suyuq fazada neft mahsulotlarini to'liq ekstraksiya qilish uchun 5-8 daqiqa optimal vaqt ekanligi xulosa qilindi.


Suv muhitining ekstraksiyaga ta'sirini o'rganish maqsadida, uch xil muhitda ekstraksiya bajarildi. Ma'lumki, neytral muhitga qaraganda kislotali yoki ishqoriy muhitda ionlar ko'proq eriydi, kuchsiz asoslar ekstraksiya samaradorligi yuqori pHda, kuchsiz kislotalarniki esa past pHda samaraliroq bo'ladi. Optimal muhit tanlash uchun neft mahsuloti tarkibida 10 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan namunani uch xil muhitda

Tahlil natijalariga ko'ra, haroratning oshishi neftyanik va metan moylari uchun gazsimon va qattiq mahsulotlarning gaz holatga o'tishini tezlashtiradi va uglevodorod fraksiyalarini yo'qotishga olib keladi. Harorat pasayganda neft mahsulotlari harakatchanligini yo'qotadi va neft fraksiyasida erigan suv muz kristallari shaklida ajralib qoladi. Neft mahsulotlari tarkibida mavjud parafinli neft mahsulotlari past haroratda qatronli moddalar mavjudligi natijasida quyilish nuqtasini pasaytiradi va qotib qoladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, vaqt oshishi bilan uglevodorod chiqish piklari o'ngga qarab oshib borishini hamda vaqt 5-8 daqiqaga yetganda va keyingi daqiqada piklarni to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanishini ko'rish mumkin. 10-20 daqiqalarda uglevodorod chiqish piklari pastga qarab yo'nalganini ko'rish mumkin. Bu esa ekstraksiya vaqtining oshishi uchuvchan bo'lgan uglevodorodlarni yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

ekstraksiya qilinib mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografda xromatogrammalar tahlili olindi. Natijalar 6-rasmda keltirilgan.

Tahlil natijalariga asosan, har xil tarkibdagi neft mahsulotlari – yuqori molekulyar og‘irlikdagi komponentlar kislota ta’sirida suvda erimaydigan qora qattiq mahsulotlarni hosil qiladi, hamda kislota ta’sirida erkin barqaror radikalarning oshishi kuzatildi. Shuningdek, pH miqdorining kamayishi bilan, uglevodorodlar piklarining hosil bo‘lishi oshishi kuzatildi. Bu esa neft tarkibida kuchli kislota asosli birikmalarning ustunligini ko‘rsatadi.



**6-rasm.** Suvdan neft mahsulotlarini ajratib olishda suv muhitining ta’siri.

Shunday ekan, neft mahsulotlarini suvdan ajratib olish uchun optimal muhit kislotali muhitni ( $\text{pH} \geq 2$ ) tashkil etadi. Shuningdek tahlil jarayonida namunaning pH ko‘rsatkichini nazorat qilish muhim hisoblanadi.

Suv resurslaridan neft mahsulotlarini ajratib olish va uni qutbli birikmalardan tozalash maqsadida mavjud qattiq fazali mikroekstraksiya (QFME) va yangi taklif etilayotgan xromatografik mikrokolonka usullarining imkoniyatlari o‘rganildi. Tarkibida 1,0; 5,0 va 10,0  $\text{mg}/\text{dm}^3$  neft mahsulotlari bo‘lgan sun’iy namunalardan kartridj yordamida neft mahsulotlari ajratib olinib 5,0; 10,0 va 20,0 ml organik erituvchilarda desorbsiya qilindi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval.**

Sun’iy namunalarni qattiq fazali mikroekstraksiya (QFME) usulida ekstraksiya qilish natijalari.

QFME	Organik erituvchi hajmi, ml	C neft, $\text{mg}/\text{dm}^3$	Xatoligi, %
Sun’iy namuna tarkibida 1 $\text{mg}/\text{dm}^3$ neft mahsulotlari mavjud			
C <sub>18</sub> SPE, 500 mg	5,0	0,92±0,021	8,0
	10,0	0,94±0,021	6,0
	20,0	0,96±0,021	4,0
Sun’iy namuna tarkibida 5 $\text{mg}/\text{dm}^3$ neft mahsulotlari mavjud			
C <sub>18</sub> SPE, 500 mg.	5,0	4,30±0,056	14
	10,0	4,54±0,056	9,2
	20,0	4,62±0,056	7,6
Sun’iy namuna tarkibida 10 $\text{mg}/\text{dm}^3$ neft mahsulotlari mavjud			
C <sub>18</sub> SPE, 500 mg	5,0	6,40±0,12	36
	10,0	7,02±0,12	30
	20,0	8,12±0,12	19

Tahlil uchun C<sub>18</sub> SPE qattiq fazali mikroekstraksiya kartridjlari (*Funksional guruhi – C<sub>18</sub>, zarrachalar hajmi 40-60 mkm, poralar hajmi 120A, g'ovaklik hajmi 0,8 sm<sup>3</sup>/g, yuzasi 480 m<sup>2</sup>/g. Faol oktaditsil silan guruhlarining kichik ikkilamchi qutubli guruhlari bilan o'zaro ta'sirlari natijasida kuchli gidrofob tutib qolish qobiliyatiga ega. C<sub>18</sub> kartridjlari yuqori uglerodli tarkibga va yuqori gidrofoblikka ega bo'lib, namuna o'tish tezligi va miqdorini oshiradi*) dan foydalanildi.


Tarkibida 1,0; 5,0 va 10,0 mg/dm<sup>3</sup> neft mahsulotlari bo'lgan sun'iy namunalari yangi taklif etilayotgan mahalliyashtirilgan xromatografik mikrokolonka (*diametri 0,7-1,0 cm, uzunligi 6-10 cm standart teshikli va pistonli, og'zi shlif bilan yopilgan ajratuvchi kolonkani xloroform bilan yuvib olindi, ekstrakt bilan yuvilgan shisha kolonkaga steklovata joylanib, ustiga 110°C da 4 soat davomida quritilib o'zgarmas massaga keltirilgan alyuminiy oksiddan 0,2-2,0 g solingan hamda havo bilan reaksiyaga kirishmasligi uchun silikagel solingan kolonka og'zi mahkam yopilib shtativga mahkamlangan uskunadan iborat*) usuli yordamida neft mahsulotlari ajratib olinib 5,0; 10,0 va 20,0 ml organik erituvchilarda desorbsiya qilindi. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval.

Sun'iy namunalarni xromatografik mikrokolonkali usulida ekstraksiya qilish natijalari.

Olingan namuna hajmi, ml	Organik erituvchi hajmi, ml	C neft, mg/dm <sup>3</sup>	Xatoligi, %
Sun'iy namuna tarkibida 1 mg/dm <sup>3</sup> neft mahsulotlari mavjud			
200 ml	5,0	0,92±0,021	8,0
	10,0	0,94±0,021	6,0
	20,0	0,96±0,021	4,0
Sun'iy namuna tarkibida 5 mg/dm <sup>3</sup> neft mahsulotlari mavjud			
100 ml	5,0	4,54±0,056	9,2
	10,0	4,64±0,056	7,2
	20,0	4,70±0,056	6,0
Sun'iy namuna tarkibida 10 mg/dm <sup>3</sup> neft mahsulotlari mavjud			
50 ml	5,0	8,26±0,12	17,4
	10,0	8,86±0,12	11,4
	20,0	9,20±0,12	8,0


Tahlil natijalariga asosan, yangi taklif etilayotgan xromatografik mikrokolonka usuli va QFME usuli natijalari taqqoslandi (7-rasm). Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatdiki, suvda neft mahsulotlari miqdori ko'p bo'lganda QFME usuli aniqlash chegarasi xatoligi oshishi aniqlandi. QFME kartridjlarida ma'lum miqdorda adsorbentlar mavjud bo'lib, aniqlanadigan moddani konsentratsiyasi oshishi bilan kartridjning sorbsiya qilish qobiliyati pasayishi kuzatildi. QFME usulida ekstraksiya qilish neft mahsulotlari konsentratsiya miqdori yuqori bo'lgan suvlarni desorbsiya qilishda ko'p hajmda organik ekstragent talab etishi aniqlandi.



**7-rasm.** QFME va yangi xromatografik mikrokolonka usuli yordamida ekstraksiya qilingan namunalarning taqqoslash natijalari.

Shuningdek, QFME katridjlari suvda (asosan oqava suvlarda) neft mahsulotlari miqdori ko'p bo'lganda bir namuna uchun bir nechta kartridjlardan foydalanish talab etilishi aniqlandi. Yangi taklif etilayotgan xromatografik mikrokolonka usuli barcha turdagi suv namunalari (tabiiy, oqava va ichimlik) uchun va har xil konsentratsiyadagi neft mahsulotlari bilan ifloslangan suvlarda maksimal ajratish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.


Xromatografik mikrokolonka kam reaktiv sarf qilgan holda, organik erituvchilarni atmosferaga tushishini va chiqindilarni kamayishini hamda xromatografik mikrokolonkaning qayta ishlatish imkoniyati mavjudligi bilan afzalliklari isbotlandi. Yuqorida keltirilgan, ilmiy asoslangan natijalarga asosan suyuq fazada, organik erituvchi yordamida xromatografik mikrokolonka usulida neft mahsulotlarini ajratib olishning optimal namuna tayyorlash sxemasi ishlab chiqildi (8-rasm). Ishlab chiqilgan sxema xromatografik mikrokolonka usuli yordamida, kam miqdorda organik erituvchi va silikagel ishlatilgan holda, suvda neft mahsulotlarini yuqori (100 mg/dm<sup>3</sup>) yoki eng kichik (0,02 mg/dm<sup>3</sup>) konsentratsiya diapazonida aniqlash imkoniyatini berdi.




**8-rasm.** Suv namunalaridan neft mahsulotlarini ajratib olishning namuna tayyorlash sxemasi.

Ishlab chiqilgan sxema asosida neft mahsulotlarini aniqlash chegarasini baholash uchun konsentratsiyasi mos ravishda 0,01; 0,02; 0,04; 0,06 va 0,1 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan sun'iy namunalar tayyorlandi va mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografda xromatogramma tahlillari bajarildi. Aniqlash chegarasini baholash maqsadida, past konsentratsiyalarda tayyorlangan sun'iy namunalar konsentratsiya miqdori alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usulida tahlil qilindi.

Sun'iy namunalar tarkibidagi uglevodorodlar tarkibini eng past konsentratsiyalarda mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografiya usulida identifikatsiya qilish imkoniyati o'rganildi. Natijalar 9-10 rasmlarda keltirilgan.



**9-rasm.** Neft mahsulotlari konsentratsiyasi 0,01 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan sun'iy namuna xromatogrammasi.



**10-rasm.** Neft mahsulotlari konsentratsiyasi 0,02 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan sun'iy namuna xromatogrammasi.

4-jadval hamda 9-10 rasm natijalariga asosan konsentratsiya tarkibi 0,01 va 0,02 mg/dm<sup>3</sup> bo'lgan sun'iy namunalarda mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografik usulda identifikatsiya qilingan uglevodorodlarning aniqlash chegaralari hisoblandi. Quyi aniqlash chegaralarini hisoblash standart og'ish massa ulushlari birliklari asosida gradirovkali grafik natijalari asosida bajarildi. Tahlil natijalariga asosan umumiy neft mahsulotlarining quyi aniqlash chegarasi 0,02 mg/dm<sup>3</sup> ekanligi isbotlandi.

**“Yangi takomillashtirilgan alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usulini mavjud standart usullar bilan asoslash”** nomli to'rtinchi bobida yangi takomillashtirilgan gaz-xromatografiya usulini to'g'riligini baholash maqsadida, O'zbekiston va Rossiya davlatlarida standartlar reyestr ro'yhatidan o'tgan standart metodlar yordamida sun'iy namunalar tahlil qilindi. Usulni tasdiqlash uchun gravimetrik (O'z O'U 0697-2015), fluorimetrik (Dav St UQ 118.3897485.13-92) va IQ-spektrometrik (Dav St UQ 4.1.1013-01) usullaridan foydalanildi.

Usulni baholash maqsadida, neft mahsulotlari miqdori aniq bo'lgan sun'iy namunalar tayyorlandi:

- SN – 1, uglevodorodlar “kiritildi” – 0,5 mg/dm<sup>3</sup>;
- SN – 2, uglevodorodlar “kiritildi” – 1,0 mg/dm<sup>3</sup>;
- SN – 3, uglevodorodlar “kiritildi” – 5,0 mg/dm<sup>3</sup>;
- SN – 4, uglevodorodlar “kiritildi” – 10,0 mg/dm<sup>3</sup>.


Yangi takomillashtirilgan usulni baholash va standart usullar bilan solishtirishda “kiritildi-topildi” usulidan foydalanildi. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

### 5-jadval.

Sun'iy namunalar tarkibida neft mahsulotlari miqdorini yangi takomillashtirilgan gaz-xromatografiya va standart usullarda aniqlash natijalari (P=95, n=3)

Usul	Sun'iy namuna nomi	Kiritildi, mg/dm <sup>3</sup>	Topildi, mg/dm <sup>3</sup>	S	S <sub>r</sub>
Gravimetrik usul O'z O'U 0697-2015	SN – 1	0,5	0,34±0,024	0,012	0,033
	SN – 2	1,0	0,79±0,036	0,010	0,013
	SN – 3	5,0	3,79±0,11	0,012	0,003
	SN – 4	10,0	7,62±0,12	0,020	0,003
Fluorimetrik usul Dav St UQ 118.3897485.13-92	SN – 1	0,5	0,43±0,020	0,023	0,054
	SN – 2	1,0	0,86±0,021	0,015	0,018
	SN – 3	5,0	4,55±0,101	0,030	0,007
	SN – 4	10,0	9,20±0,096	0,080	0,009
IQ-spektrometrik usul Dav St UQ 4.1.1013-01	SN – 1	0,5	0,40±0,011	0,020	0,050
	SN – 2	1,0	0,94±0,028	0,020	0,021
	SN – 3	5,0	4,24±0,103	0,040	0,010
	SN – 4	10,0	9,64±0,14	0,040	0,004
Gaz-xromatografiya usuli	SN – 1	0,5	0,42±0,013	0,020	0,048
	SN – 2	1,0	0,93±0,025	0,042	0,045
	SN – 3	5,0	4,83±0,09	0,046	0,010
	SN – 4	10,0	9,48±0,13	0,080	0,008


Tahlil natijalariga asosan, standart usullar va takomillashtirilgan gaz-xromatografiya usulining natijalari taqqoslandi. Natijalar 11-rasmda keltirilgan.



**11-rasm.** Takomillashtirilgan gaz-xromatografiya usulining standart usullar bilan solishtirma tahlil natijalari.

5-jadval va 11-rasmdan ko‘rinadiki, “kiritildi-topildi” usuli yordamida tekshirish natijalari ishlab chiqilgan usulning qayta takrorlanuvchanligi va to‘g‘riligini isbotlaydi. Bunda ishlab chiqilgan usulning nisbiy standart chetlanishi 0,048 dan oshmaydi.

Dissertatsiyaning “**Takomillashtirilgan alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya usulini metrologik asoslash**” nomli beshinchi bobida yangi takomillashtirilgan usulning metrologik ko‘rsatkichlari DavSt ISO 5725-2-2003 va RMG 61-2010 standarti asosida bajarildi. Metrologik xarakteristikalarini baholash uchun neft mahsulotlaridan 8 xil konsentratsiyaga ega bo‘lgan konsentratsiyasi 1,0-120 mg/dm<sup>3</sup> gacha bo‘lgan sun‘iy namunalari tayyorlandi.



**12-rasm.** Neft mahsulotlari pik maydonlarining konsentratsiyasiga bog‘liqlik egri chizig‘i.

Sun‘iy namunalardan 1 ml dan olib mass-spektrometrik detektorli gaz-xromatografiya usuli yordamida tahlil qilindi. Olingan natijalarning graduirovkali grafikdagi egri chizig‘i 12-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, ishchi eritmaning ma‘lum konsentratsiyada tayyorlangan neft mahsulotlari miqdori 1,0-100,0 mg/dm<sup>3</sup> gacha bo‘lgan pik maydonlarining graduirovkali grafigi keltirilgan, yaqinlashish koeffitsiyenti R<sup>2</sup>=0.9832 ga teng.

Takomillashtirilgan usul DavSt 118.3897485.13-92, DavSt 14.1:2:4.5-95 spektrofotometrik va fluorimetrik usullari bilan solishtirildi. Har bir namuna uchun parallel aniqlashlar natijalari yaqinligini baholash uchun ikki mustaqil usul – Styudent va Fisher omillarini hisoblash orqali amalga oshirildi. Olingan natijalar 6-7 jadvallarda keltirilgan.

### 6-jadval

Tabiiy suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashning alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya (GX-AID) usuli va fluorimetrik (I) usuli natijalarini taqqoslash (n=12, fl=11, P=0,95)

Tahlil obyekti	GX-AID		I usul	
	Namuna x, mg/dm <sup>3</sup>	S <sub>r</sub>	Namuna x, mg/dm <sup>3</sup>	S <sub>r</sub>
Xromatografik mikrokolonka usuli	0,52	0,038	0,50	0,040
t-mezon	t <sub>eksp</sub> =1,42; t <sub>jadv</sub> =2,83		t <sub>eksp</sub> < t <sub>jadv</sub>	
F-mezon	F <sub>eksp</sub> =3,18; F <sub>jadv</sub> =4,47		F <sub>eksp</sub> < F <sub>jadv</sub>	

**7-jadval**

Oqava suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashning alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografiya (GX-AID) usuli va spektrofotometrik (II) usuli natijalarini taqqoslash (n=12, fl=11, P=0,95)

Tahlil obyekti	GX-AID		II usul	
	Namuna x, mg/dm <sup>3</sup>	S <sub>r</sub>	Namuna x, mg/dm <sup>3</sup>	S <sub>r</sub>
Xromatografik mikrokolonka usuli	1,16	0,034	1,18	0,033
t-mezon	t <sub>eksp</sub> =1,36; t <sub>jadv</sub> =2,83		t <sub>eksp</sub> < t <sub>jadv</sub>	
F-mezon	F <sub>eksp</sub> =2,86; F <sub>jadv</sub> =4,47		F <sub>eksp</sub> < F <sub>jadv</sub>	

Tahlil natijalarining Fisher va Styudent mezonlari asosida solishtirish shuni ko'rsatadiki, hisoblab topilgan F- va t-mezonlari qiymatlari nazariy jadval qiymatlaridan oshmaydi. Bu esa tahlil usullari natijalari o'rtasida sezilarli farqlar hamda sistematik xatoliklar yo'qligini ko'rsatadi.

**8-jadval**

Neft mahsulotlarini alanga-ionizatsiyali detektorli gaz-xromatografiya aniqlash usuli va DavSt usullari bilan raqobatbardoshligini baholash.

T/r	Aniqlanuvchi parametrlar	Takomillashtirilgan usul	Dav St UQ 118. 3897485.13-92 (fluorimetrik usul)	Dav St UQ 14.1:2:4.5-95 (spektrofotometrik usul)
1	Muhit, pH	≥2	2-3	≤2
2	Quyi aniqlash chegarasi	0,02	0,05	0,05
3	Organik reagent	Xloroform	Geksan	Ulgerod to'rt xlorid
4	Ekstraksiya jarayoni	Xromatografik mikrokolonka	Apparat sokslet	Sentrafuga va haydash
5	S <sub>r</sub>	0,034	0,040	0,033

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oqava va tabiiy suvlar tarkibida neft mahsulotlarini aniqlashda takomillashtirilgan alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografik usulidan foydalanish mumkin.

## XULOSALAR

1. Tabiiy va oqava suvlar tarkibida organik erituvchi yordamida neft mahsulotlarini maksimal ajratib olish imkonini beradigan namuna tayyorlash sharoiti tanlandi. Suyuq fazada neft mahsulotlari fraksiyalarini ajratib olish hamda umumiy neft mahsulotlari miqdorini ( $\text{mg}/\text{dm}^3$ ) aniqlash uchun organik erituvchi - xloroform, ekstraksiya qilish harorati -  $20^\circ\text{C}$ , ekstraksiya vaqti 5-8 daqiqa hamda suv muhiti  $\text{pH} \geq 2$  eng maqbul ekanligi aniqlandi.

2. O'rganilgan namuna tayyorlash sharoitida ajratib olingan neft mahsulotlarini (elyuatni) qutbli birikmalardan tozalash maqsadida  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  silikagellari solingan maxalliylashtirilgan "xromatografik mikrokolonka" tavsiya etildi.

3. Bir vaqtning o'zida suv resurslarida neft mahsulotlari fraksiya tarkibini identifikatsiya qilish va miqdorini aniqlash imkonini beradigan gaz-xromatografik usulining optimal tahlil sxemasi asoslandi.

4. Alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografik usul yordamida neft mahsulotlari miqdorini aniqlashning quyi chegarasi  $0,02 \text{ mg}/\text{dm}^3$  ekanligi aniqlandi. Takomillashtirilgan usulning raqobatbardoshligi O'zO'U 118.3897485.13-92, DavSt 14.1:2:4.5-95, fluorimetriya va spektrofotometriya usullari bilan solishtirish orqali aniqlandi. Tahlil natijalari Fisher va Styudent mezonlari asosida solishtirildi, hisoblab topilgan F- va t- mezonlar qiymatlari nazariy jadval qiymatlaridan oshmasligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan usulning nisbiy standart chetlanishi 0,048 dan oshmasligi kuzatildi, usulning to'g'riligi va qayta takrorlanuvchanligi tasdiqlandi.

5. Tabiiy va oqava suvlar tarkibida neft mahsulotlarini ajratib olish va miqdoriy tarkibini aniqlashning takomillashtirilgan gaz-xromatografik usuli natijalari "Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti" davlat muassasasining "Neft va gaz gidrogeologiyasi" laboratoriyasida Buxoro-Xiva neft-gaz konlari qatlam suvlarini o'rganish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda qatlam suvlari tarkibida neft mahsulotlari miqdorini aniqlash tahlilida qo'llashga tavsiya etildi.

6. Takomillashtirilgan alanga-ionizatsion detektorli gaz-xromatografik usuli yordamida "O'zbekgidrogeologiya" davlat muassasasi Farg'ona gidrogeologiya stansiyasining "Farg'ona viloyati hududidagi yer osti suvlarini davlat monitoringini yuritish" mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan yer usti, yer osti va oqava suvlar tarkibidagi neft mahsulotlarini aniqlash va fraksiya tarkibini identifikatsiya qilish hamda ularni ekologik monitoring qilish amaliyotida qo'llanildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ DSC.03/30.12.2019.К.01.03 ПРИ  
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**МЕЙЛИЕВА МУНИСХОН НОРМУМИНОВНА**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГАЗОХРОМАТОГРАФИЧЕСКОГО  
МЕТОДА ОПРЕДЕЛЕНИЯ НЕФТЕПРОДУКТОВ В СТОЧНЫХ И  
ПРИРОДНЫХ ВОДАХ**

**02.00.02 – аналитическая химия**

**АФТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО  
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/K754.**

Диссертация выполнена в Университете геологических наук, ГУ «Институт гидрогеологии и инженерной геологии».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу Научного совета [ik-kimyo.nuu.uz](http://ik-kimyo.nuu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:**

**Сманова Зулайхо Асаналиевна**  
доктор химических наук, профессор

**Оппоненты:**

**Абдурахманов Эргашбой**  
доктор химических наук, профессор

**Зиявитдинов Жамолитдин Фазлитдинович**  
доктор химических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский фармацевтический институт**

Защита диссертации состоится «23» ноября 2024г. в 09<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (998 71) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.ru](mailto:ilmiy_kengash@nuu.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №115). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-07-88, 277-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24.)

Автореферат диссертации разослан 6 ноября 2024г.  
(реестр протокола рассылки № 28 от 5 ноября 2024г.)

**Ш.Ш. Даминова**  
Заместитель председателя Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.х.н.,  
профессор

**Н.Х. Кутлимуротова**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.х.н.,  
профессор

**Б.Н.Бабаев**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.х.н., профессор

## **Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Бурное развитие сфер легкой и тяжелой промышленности в мире, разведка углеводородов, увеличение их ресурсов, день за днем увеличивает потребность в эффективной добыче и переработке. Воздействие нефтепродуктов, выделяемых в процессах добычи и переработки углеводородов на загрязнение окружающей среды, включая водные ресурсы и почвы, вызывает различные геоэкологические проблемы. Практическое значение приобретает разработка, совершенствование высокоточных, селективных, быстрых и недорогих методов анализа, применяемых для решения этих задач, особенно для эффективного определения количества нефтепродуктов в водных ресурсах и почвах.

В мировом масштабе учеными отрасли проводятся широкомасштабные исследования по оценке загрязнения водных ресурсов и почв нефтепродуктами, а также по определению содержания в них нефтепродуктов. В частности, при определении очагов загрязнения геоэкологической среды и своевременном принятии соответствующих оперативных решений важное научное значение имеет выбор органического растворителя для выделения нефтепродуктов из жидкой фазы в газохроматографии, а также очистка элюата от полярных соединений. Результаты этих исследований, в свою очередь, позволяют оценить степень загрязнения водных ресурсов и почв, осуществить определенные меры по их охране и рациональному использованию.

В целях защиты водных ресурсов, почв, имеющих стратегическое значение в нашей стране, от загрязнения и рационального, целенаправленного их использования в исследованиях особое внимание уделяется созданию “гибридных” методов выделения и количественного химического анализа нефтепродуктов, были достигнуты определенные результаты в этих направлениях. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по “рациональному и эффективному использованию водных ресурсов, снижению негативного воздействия на окружающую среду свалок бытовых отходов, не отвечающих экологическим требованиям”<sup>1</sup>. Важно разработать современные, более надежные, экспрессные и доступные методы определения содержания нефтепродуктов в сточных водах нефтехимической промышленности, являющихся в нашей республике одним из источников загрязнения объектов окружающей среды. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для выполнения задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП № 60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2019 года УП № 5863 “Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года”, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 25 октября 2018 года № ПП-3983 “О мерах по дальнейшему совершенствованию развития химической промышленности

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 “Стратегия развития нового Узбекистана”

Республики Узбекистан" и других нормативных правовых актах, касающихся данной деятельности.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики.** Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики VII. "Химические технологии и нанотехнологии".

